XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 26-mart VII-7-50-12-0-K/25 Xorazm viloyati

Xorazm viloyatida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-avgustdagi “Tashqi reklamani joylashtirish sohasidagi faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 702-sonli, 2020-yil 20-fevraldagi “Tashqi reklama bozorini tartibga solish to‘g‘risida”gi 104-sonli, 2023-yil 31-avgustdagi “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 428-sonli qarorlari va sohaga oid boshqa normativ hujjatlar hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

Qaror qiladi:

1. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 6-martdagi 02-04-33-38/223-sonli, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat hududiy filialining 2025-yil 4-martdagi 1644/01-05-sonli, viloyat hokimligining 2025-yil 4-martdagi 09/2175-sonli va viloyat soliq boshqarmasining 2025-yil 18-fevraldagi 32-18961-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xorazm viloyatida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun oylik yig‘imlarning tabaqalashtirilgan miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xorazm viloyati hokimligi tashqi reklamani muvofiqlashtirish bo‘linmasi (O.Yangiboyev), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Iskandarov) Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy filiali (A.Sabirov) shaharlar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda viloyat hududida tarixiy-shaharsozlik muhiti va tuman (shahar)larning mavjud binolari me’moriy qiyofasini saqlab qolish, tashqi reklama va ijtimoiy axborotni joylashtirish sohasini tizimli tartibga solish, mazkur yo‘nalishda qat’iy nazorat o‘rnatish, tashqi reklama sohasining barcha ishtirokchilari uchun teng imkoniyatlar yaratib, mulk daxlsizligini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlari o‘z hujjatlarini mazkur qarorga muvofiqlashtirsin.

5. Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2024-yil 30-maydagi “Xorazm viloyatida tashqi reklama obyektlariga tashqi reklamani joylashtirish uchun yig‘imlar miqdorini belgilash to‘g‘risida”gi VI-82-68-12-0-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror tasdiqlangan paytdan 15 kun o‘tgach kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari doimiy komissiyasi raisi K.Igambergenov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi  RADJABOV ALTIBAY BEGJANOVICH

Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining
2025-yil 26-martdagi
VII-7-50-12-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyatida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun oylik yig‘imlarning tabaqalashtirilgan miqdorlari

1 kv metr uchun so‘mda

T/r	Tashqi reklama turi	Bazaviy stavka	Tashqi reklama vositalari uchun oylik yig‘im miqdori					
			Urganch shahri		Xiva shahri, Urganch tumani		Boshqa hududlar	
I.	**YER UCHASTKALARIDA O‘RNATILGAN ALOHIDA TURUVCHI KONSTRUKSIYALAR**	**BHMning 5% foizi**	**Koeff**	**Stavka**	**Koeff**	**Stavka**	**Koeff**	**Stavka**
1.1	kichik formatdagi (2,19 kv.metrgacha)	18 750	0,60	11 250	0,55	10 310	0,50	9 370
1.2	o‘rta formatdagi (2,2 dan 12 kv. metrgacha)	18 750	0,60	11 250	0,55	10 310	0,50	9 370
1.3	katta formatdagi (12 dan 18 kv. metrgacha)	18 750	0,60	11 250	0,55	10 310	0,50	9 370
1.4	o‘ta katta formatdagi (18 kv. metrdan ortiq)	18 750	0,60	11 250	0,55	10 310	0,50	9 370
1.5	mahsulot, ish va xizmat namunasi	18 750	0,60	11 250	0,55	10 310	0,50	9 370
1.6	hajmli-fazoviy qurilma	18 750	0,60	11 250	0,55	10 310	0,50	9 370
1.7	yuqori texnologiyali konstruksiyalar (video ekranli konstruksiyalar, LED monitorlari, yorug‘li-diodli monitorlar, video ekranlar, “yuguruvchi satrlar”, displeylari va boshqalar)	18 750	1,40	26 250	1,20	22 500	1,00	18 750
1.8	bayroqli reklamalar to‘plami (kompozitsiya)	18 750	0,60	11 250	0,55	10 310	0,50	9 370
1.9	ko‘rsatkichlar ko‘rinishidagi reklama vositalari (bir konstruksiya uchun)	18 750	0,50	9 370	0,50	9 370	0,50	9 370
II.	**BINOLAR, INSHOOTLAR VA QURILMALARDAGI REKLAMA KONSTRUKSIYALARI**	**BHMning 5% foizi**	**Koeff**	**Stavka**	**Koeff**	**Stavka**	**Koeff**	**Stavka**
2.1	binoning tashqi qismida joylashtirilgan kichik konstruksiyalar (2 kv. metrgacha)	18 750	0,70	13 120	0,60	11 250	0,50	9 370
2.2	binoning tashqi qismida joylashtirilgan kichik konstruksiyalar (2 kv. metr va undan ortiq)	18 750	0,55	10 310	0,52	9 750	0,50	9 370
2.3	binolarning tom qismlaridagi konstruksiyalar	18 750	0,55	10 310	0,52	9 750	0,50	9 370
2.4	yuqori texnologiyali konstruksiyalar (video ekranli konstruksiyalar, LED monitorlari, yorug‘li-diodli monitorlar, video ekranlar, “yuguruvchi satrlar”, displeylari va boshqalar)	18 750	1,40	26 250	1,20	22 500	1,00	18 750
2.5	proyeksiyali uzatmalar	18 750	0,54	10 120	0,52	9 750	0,50	9 370
2.6	vitrajlar, markizlar	18 750	0,60	11 250	0,55	10 310	0,50	9 370
2.7	pavilyonlardagi konstruksiyalar	18 750	0,54	10 120	0,52	9 750	0,50	9 370
2.8	ko‘cha mebeli, xususan, reklama moduli o‘rnatilgan o‘rindiqlar	18 750	0,54	10 120	0,52	9 750	0,50	9 370
2.9	maydonli to‘siqlardagi konstruksiyalar	18 750	0,54	10 120	0,52	9 750	0,50	9 370
2.10	ko‘priklarda, yo‘l o‘tkazgichlar, quvur liniyalari, yoritish tirgaklarida o‘rnatilgan konstruksiyalar	18 750	0,54	10 120	0,52	9 750	0,50	9 370

III.	TASHQI REKLAMA VAQTINCHALIK OBYEKTLARI (KONSTRUKSIYALARI)	BHMning 5% foizi	Koeff	Stavka	Koeff	Stavka	Koeff	Stavka
3.1	qurilish maydonchalaridagi 2 kv. metr va undan ko‘p bo‘lgan vaqtincha reklama to‘siqlari	18 750,0	0,55	10 310,0	0,54	10 120,0	0,50	9 370,0
3.2	barcha turdagi peshlavhalar, kronshteynlar, shtenderlar va b.	18 750,0	0,90	16 870,0	0,54	10 120,0	0,50	9 370,0
3.3	umumiy ovqatlanish korxonalari va savdo nuqtalaridagi axboroti (2 kv. metr va undan ko‘p)	18 750,0	0,55	10 310,0	0,54	10 120,0	0,50	9 370,0
3.4	vaqtincha turdagi kiosklar va pavilyonlardagi reklama	18 750,0	0,55	10 310,0	0,54	10 120,0	0,50	9 370,0
3.5	plakatlar, chodirlar, soyabonlar, kanoplar, bayroqlar, osma bayroqlar, yelkanli bayroqlardagi reklama	18 750,0	0,55	10 310,0	0,54	10 120,0	0,50	9 370,0
3.6	nostandart shakldagi konstruksiyalar	18 750,0	0,55	10 310,0	0,54	10 120,0	0,50	9 370,0
3.7	promoqurilmalar	18 750,0	0,55	10 310,0	0,54	10 120,0	0,50	9 370,0
IV.	**BOSHQA TURDAGI REKLAMA KONSTRUKSIYALARI**	**BHMning 5% foizi**	**Koeff**	**Stavka**	**Koeff**	**Stavka**	**Koeff**	**Stavka**
4.1	boshqa turli nostandart shakldagi reklama konstruksiyalari	18 750,0	2,00	37 500,0	1,50	28 120,0	1,00	18 750,0

Yuqori texnologiyali tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari)ning masofaviy boshqarish maxsus platformalari elektron tizimga integratsiya qilinadi va mazkur platformalar “Kiberxavfsizlik markazi” DUKda kiberxavfsizlik talablariga muvofiq kompleks ekspertizadan o‘tkaziladi.

Bunda yuqoridagi talablar to'liq bajarilganda, shu oydan boshlab, har bir tashqi reklama obyekti uchun 12 oy davomida (pasport muddati tugashidan ko'p bo'lmagan davrga), tasdiqlangan yig‘im yillik summasining 20 foizi miqdorida biroq, har bir obyekt uchun Bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda kompensatsiya (rag‘batlantirish) qo'llaniladi.

Auksion savdolari natijasiga ko'ra o'rnatilgan yuqori texnologiyali tashqi reklama obyektlari uchun yuqoridagi talablar bajarilganda, rag'batlantirish miqdori 2 baravarga oshirilgan holda qo'llaniladi.

1 donasi uchun so‘mda

T/r	Tashqi reklama turi	Bazaviy stavka	Tashqi reklama vositalari yillik yig‘im miqdori	
			Barcha hududlar	
V.	**Transport vositalari joyashtirilgan reklama**	**BHMning 1 baravari**	**Koeff**	**Stavka**
5.1	M1 — yo‘lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan va haydovchining o‘rindig‘idan tashqari o‘rindiqlar soni 8 tadan oshmaydigan avtotransport vositalari	375 000	1,20	450 000,0
5.2	M2 — yo‘lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan, haydovchining o‘rindig‘idan tashqari o‘rindiqlar soni 8 tadan ortiq va eng katta vazni 5 t gacha bo‘lgan avtotransport vositalari	375 000	1,40	525 000,0
5.3	M3 — yo‘lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan, haydovchining o‘rindig‘idan tashqari o‘rindiqlar soni 8 tadan ortiq va eng katta vazni 5 t dan ko‘p bo‘lgan avtotransport vositalari	375 000	2,20	825 000,0
5.4	N1 — yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 3,5 t dan oshmaydigan avtotransport vositalari	375 000	2,20	825 000,0
5.5	N2 — yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 3,5 t dan ortiq, lekin 12 t dan oshmaydigan avtotransport vositalari	375 000	4,00	1 500 000,0
5.6	N3 — yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 12 t dan ortiq bo‘lgan avtotransport vositalari	375 000	5,40	2 025 000,0
5.7	O1 — eng katta vazni 0,75 t dan oshmaydigan tirkamalar	375 000	1,20	450 000,0

5.8	O2 — eng katta vazni 0,75 t dan ortiq, lekin 3,5 t dan oshmaydigan tirkamalar	375 000	1,20	450 000,0
5.9	O3 — eng katta vazni 3,5 t dan ortiq, lekin 10 t dan oshmaydigan tirkamalar	375 000	2,80	1 050 000,0
5.10	O4 — eng katta vazni 10 t dan ortiq bo‘lgan tirkamalar	375 000	4,00	1 500 000,0
5.11	Maxsus transport vositalari	375 000	4,00	1 500 000,0

Transport vositalarida tashqi reklama va axborotni o‘rnatish uchun reklama joyining pasporti viloyat hokimligi tomonidan Ichki ishlar vazirligi bilan kelishilgan holda bir yil muddatga beriladi.

1 kv metr uchun so‘mda

T/r	Tashqi reklama turi	Bazaviy stavka	Tashqi reklama vositalari oylik kompensatsiya miqdori	
			Barcha hududlar	
VI.	**Tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari)ni demontaj qilinganligi uchun kompensatsiya**	**BHMning 1 baravari**	**Koeff**	**Stavka**
6.1	Yer uchastkalarida o‘rnatilgan alohida turuvchi konstruksiyalar	375 000	0,040	15 000,0
6.2	Binolar, inshootlar va qurilmalardagi reklama konstruksiyalari	375 000	0,040	15 000,0
6.3	Tashqi reklama vaqtinchalik obyektlari (konstruksiyalari)	375 000	0,040	15 000,0
6.4	Boshqa turdagi reklama konstruksiyalari	375 000	0,020	7 500,0
6.5	yuqori texnologiyali konstruksiyalar (video ekranli konstruksiyalar, LED monitorlari, yorug‘li-diodli monitorlar, video ekranlar, “yuguruvchi satrlar”, displeylari va boshqalar)	375 000	0,067	25 100,0

Yig‘im miqdorlari bazaviy hisoblash miqdorlariga mos ravishda o‘zgaradi va shu kundan yangi stavkalar qo‘llaniladi. Agar elektron tizimda boshqacha tartib o‘rnatilgan bo‘lmasa, BHM miqdori o‘zgargunigacha tuzilgan shartnomalar summasi qolgan davrlar uchun ko‘rib chiqilmaydi va yangi ta’riflar bo‘yicha qayta hisob-kitob qilinmaydi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi tuman (shahar)larning iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, yig‘im miqdorini belgilash hamda ularga 0,5 dan 3,0 gacha bo‘lgan - kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash huquqiga ega.

Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun elektron auksion savdolariga chiqarishning boshlang‘ich narxi - tasdiqlangan yig‘im miqdorida belgilanadi.

Milliy bayramlar, xorijiy davlatlar rahbarlarining davlat tashriflari, boshqa davlat tadbirlari, sog‘liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, energetika resurslarini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, aholini ijtimoiy himoya qilish va uning xavfsizligi, ma’naviyat va ma’rifat, jamiyat va davlat manfaatlarini ta’minlash sohalarida ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan notijorat xususiyatdagi axborotlar tashqi reklama va axborot obyektlarida (konstruksiyalarida) majburiy tartibda joylashtiriladi va yig‘im miqdori joylashtirilgan kunlarga mutanosib ravishda kamaytiriladi.